

YATAN ICHRA KICHIK VATAN

Abdullayeva Zulauxa Xalilovana

Qashqadaryo viloyati Shahrizabz tumani Polmon mahallasi 33-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Tarix. Xotira. Ko'ngil kuzgusida yarqirab, dillarda ajib bir huzurmi, nimaligini qalbimiz anglay olmas darajadagi ajib bir hislar majmui....

Bolalik. O'sha beg'ubor, o'yinqaroq,shodliklarga to'la damlar sog'inchi qalbimizga iliqlik baxsh etadi..Bizni ustoz maqomiga erishishimiz uchun, hayotning sinovlariga bardosh berib, gohi ravon, gohida esa toshloq, goh o'nqir-cho'nqir yo'llaridan qadam tashlab, hayotning"baxt bekati" deb atalmish manzili sari yetkazgan , orzularimiz sababchisi va bunyodkori ona maktabim haqida fikr yuritmoqni o'z vazifam deb bilib qo'limga qalam oldim.

Mening maktabim. Ha,yillar davomida umrimning mazmuni ,hayotimning parchasi,xayol-u-o'ylarim, orzularim egasiga aylangan qutlug' dargoh. Ilm-u-urfon, xazinalar makoni..Shogird kamoli, istiqboli uchun tinim bilmay mehnat qilayotgan,sabr-toqatda tengsiz,bilim dunyosi cheksiz aziz-u mo'tabar zotlar-ustozlar, bilimga chanqoq,beg'ubor jajji qalblar intiluvchi manzil-maskan.

Ana shu men uchun qadrli maskan Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz tumani Polmon qishlog'ida joylashgan 33-umumiy orta ta'lim maktabidir..Rahmatli buvim ilk maktab haqida shunday derdilar."Eng birinchi maktab bir xonali edi.Eski kolxoz klubi binosida. Urush yillarida Kimyo deb atalguvchi ayol bolalarga dars berardi.Nechanchi yilligi aniq yodimda yo'g'ku-ya,lekin urushdan keyin Rusiyalik Zuhraxon degan muallima kelib yangicha uslubda o'qitishni boshladilar.Xo'p mehribon ayol edilar..."

Yillar davomida nomga ega bo'lmagan, filial sifatida yuritilib kelingan qishloq maktabiga 1958-yil Karl Marks nomi berildi va shu qishloqlik Sodiqov Zoir direktor qilib tayinlandi.1967-yilda Gafur Gulom nomi berilib, Nomozov Haydar rahbar sifatida belgilangan.1974-1976-yillar Xodjayev Tohir,!976-1987-yillar

Tosheva Marhamat,1987-1993-yillar Ochilov Tursunboy,1993-1999-Homidov Abduvohid,1999-2003-yillar Ashurova Mamlakat, 2003-2009-yillar Faxriddin Boysunov, 2009-2019-yillar Xodjayev Qilichodja rahbarlik qilib kelganlar.

Ma'rifatparvar,bilimdon ustozlar mehnati evaziga G'afur Gulom maktabi nafaqat tuman va viloyat, balki respublika muqyosida ham o'z o'rniga ega bo'lgan.Uch-Polmon,Qa'ni,Uloch qishloqlari o'quvchilari tahsil olgan bu maktabdan olim-u-shoirlar, yetuk davlat arboblari,shifokor-u-ustozlar,san'atkorlar,turli kasb egalari ta'lim tarbiya olganlar.Maktabimizning sobiq o'quvchisi iqtisod fanlari doktori professor T.S.Malikovnig o'z hayot yo'llari haqida yozgan kitoblaridagi jumlar qalbimni junbushga keltiradi.Chunki bu so'zlar mening maktabim, mening ustozim haqidadir. "...Institutda o'qidim.Aspiranturada tahsil oldim.Leningradida ilmiy ishinni yoqladim.Ko'p chet ellarda ilmiy anjumanlarda ishtirok etdim.Hozirda beriladigan

an'anaviy savollardan biri ,albatta, ustoz haqida bo'ladi.Har doim shu savolni eshitganimda, ko'plab ustozlarim haqida so'z yuritaman,tashakkurlar aytaman,ammo ko'z o'ngimda doimo bir tasvir gavdalanaveradi:imillab,ohista yonayotgan pechka..Atrofida bolalar. Qo'llarimni,oyoqlarimni kaftida uqalab isitayotgan ustozim Zuhra opa Oqdavlatova..."

Hayajonlanaman. Ha, mening maktabim shuuri bilim bilanda limmo-lim,qalbi mehrga to'la ustozlar maskani.Ustozlar uchun shogirdlar kamoli buyuk ne'matdir.Shogird kamolini ko'rish uchun esa tinimsiz mehnat, iroda, sabr talab etiladi. Navoiy Hazratlari aytganlaridek:"Sabr haj yo'lidek uzun va mashaqqatli,ammo nihoyasi iqbol Ka'basidur".Shu maskanda faoliyat yuritib manzillari "iqbol Ka'basiga"aylangan, hozirda ba'zilar nafaqa gashtida, ba'zilar esa oramizda yo'q(Olloh oxiratlarini obod qilsin) bo'lgan ustozlarni yodga olmoqlikni o'z shogirdlik vazifam deb bildim. Zuhra Oqdavlatova,Tohirxo'ja Xodjayeov,Tursunboy Ochilov,Bekmirzo Ravshanov,Umrzoq Murodov,Maryam Razzoqova,Ibodullo Xo'jaqulov. Nafaqadagi ustozlarim Gavhar Toshpo'latova,Sharofat Eshonqulova, Olim Amirov,Zaynab Boboqulova,Xayriniso Turopova,Qilichxodja Xodjayeov,Mohira G'ayirova,Nuriniso Po'latova..Toshxon Quvvatov,Xudaynazar Muhiddinov ... Aziz ustozlarim. Siz hamisha shogirdlar tilida mehr bilan tilga olinajaksizlar.Barcha shogirdlar nomidan hamisha sizga ta'zim bajo keltiraman.

Hozir maktabda ana shu muhtaram ustozlarimizning shogirdlari ilm-fan saboqlarini, mehrlarini berib kelmoqdalar.Zamonaviy barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan maktabimizda 50 dan ortiq ustoz, ahil jamoa.

Jamoam haqida.

Ustoz,muallim-ilm,ma'rifat bog'ining bog'boni,jamiyat degan binoning binokori...Bu bog' faqat"ustoz"deb atalmish bog'bon qo'lidagina hosilga kirgay.Ustozlar-hayot bo'stonidagi ma'naviyat,ma'rifat nomli nozik nihollarni parvarishlab,baquvvat daraxtga aylantiradilar.Mitti qablarga halollik,ezgulik,hokisorlik,poklik,bag'rikenglik kabi barcha ezgu tuyg'ular urug'ini ekib,parvarish qiladilar va ularning mangu oshiyoni bo'lishiga erishadilar.Ilm dunyosining mo'jizakor ziyosi ila ko'ngillarni munavvar etadilar. Qablarga shodlik ulashayotgan aziz ustozlarimiz o'tmish an'analariga sodiq qolgan holda maktab obro'e'tibori uchun tinimsiz izlanishda!

Maktabimiz ilmiy bo'lim mudiri Iroda Uzoqova ,Ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Tursunpo'lat Muhammadiyev , Baratova Lola, Xudayberdiyeva Dilnoza,,Egamberdiyeva Munira, Boboyeva Lutfiya, Odilova Zarifa ,Shoxaliyeva Feruza,,Zilola Sharipova,Aqida Avlayeva ,Ruxsora Saidova ,Lobar Ravshanova,Xayriniso Murtazayeva kabi ustozlarimiz jamoa orasida o'z mehnatlari tufayli obro' etiborda,e'tirofda.

Maktabimiz quvvati 841 o'quvchiga mo'ljallangan.2018 yil aprel oyida kapital ta'mirga tushib,oktyabr oyida tugallangan.Ikkita kompyuter xonasi,sport maydoni va

sport zali,tadbirlar o'tkazishga mo'ljallangan 100 o'rinli faollar zali,kutubxona o'quvchilar uchun xizmat ko'rsatmoqda.

O'z fikrlarimga xotima sifatida maktabimizning ijodkor ustozlari bilan birga maktab jamoasi ,shogirdlarimiz uchun yaratgan maktab madhiyasini keltirmoqni,aytolmagan fikrlarimni shu satrlar-la bildirmoqni ma'qul deb topdim.

MAKTAB MADHIYASI

Abdullayeva Zulayxo so'zi

Berdiyev Ulug'bek musiqasi

Aziz maktab qutlug'dargoh, senga ming ta'zim.

Tingla bugun ustozlarning so'zlarin bir zum.

Umrimizning mazmuni sen, hayot chiroqi,

Ta'zimdadir bag'ringdagi, har o'g'ling, qizing.

Vatan ichra kichik Vatan,o'zing maktabim.

Fido bo'lsin senga jon-u,ham tan maktabim.

Har bir shogird farzandimiz,bunda mo'tabar.

Berilgaydir kuchli bilim hamda e'tibor.

Yutug'imiz yurt bayrog'in baland ko'targay,

Shu sababli jamoaga omad bo'lgay yor.

Vatan ichra kichik Vatan,o'zing maktabim.

Fido bo'lsin senga jon-u,ham tan maktabim.

Yurt ishonchin oqlagaymiz chin shogird bizlar,

Oqil-zukko,iste'dodli,yigitlar,qizlar.

Biz shogirdlar doim o'qish va izlanishda,

Shu sababli jamoaga omad bo'lgay yor.

Vatan ichra kichik Vatan,o'zing maktabim.

Fido bo'lsin senga jon-u,ham tan maktabim.

Biz peshqadam san'at,sport hamma sohada,

O'z o'rni bor maktabimning Qashqa vohada.

Yurtim bergan imkonlardan shodlanib doim,

Mevalarni terajakmiz bilim bog'ida.

Vatan ichra kichik Vatan,o'zing maktabim.

Fido bo'lsin senga jon-u,ham tan maktabim!